

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 79 (1678), 2026-yil 22-aprel, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

JSST bilan hamkorlikni rivojlantirishning
dolzarb masalalari muhokama qilindi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-aprel kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bosh direktori Tedros Adxanom Gebreyesusni qabul qildi.



Ushbu nufuzli tashkilot bilan milliy sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va mustahkamlash borasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda JSST bilan hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgani ta’kidlandi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi keng ko‘lamli va tizimli islohotlar tashkilotning ekspert-maslahat ko‘magi hamda uning xalqaro standartlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda.

Hamkorlik doirasida sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator strategik hujjatlar ishlab chiqildi. Malakali tibbiyot xodimlari tayyorlanmoqda, birlamchi tibbiy-sanitar yordam, diagnostika va kasalliklar profilaktikasi tizimlari takomillashtirilmoqda, davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilmoqda.

JSST bosh direktori mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholab, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, umr ko‘rish davomiyligini uzaytirish, onalar o‘limini kamaytirish va raqamli tibbiyotni rivojlantirish borasida erishilgan salmoqli natijalarni alohida e’tirof etdi.

Uchrashuv yakunida farmatsevtika sohasini tartibga solish tizimini takomillashtirish, sog‘liqni saqlash sohasida raqamli yechimlar va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor sohalarida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda qo‘shma tadbir va tadqiqotlar o‘tkazish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI
AMALIY TASHRIF bilan
QOZOG‘ISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Ostona shahriga keldi.

Poytaxt aeroportida davlatimiz rahbarini Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, O‘zbekiston yetakchisi 22-aprel kuni Mintaqaviy

ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig‘ilishida ishtirok etadi.

O‘ZA

OSTONA SAMMITI:

MINTAQAVIY EKOLOGIK
BARQARORLIK VA SUV XAVFSIZLIGI
STRATEGIYALARI MUHOKAMA MARKAZIDA

O‘zbekiston Prezidenti shu yilning 21-22-aprel kunlari Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlari rahbarlari kengashining Ostona shahrida bo‘lib o‘tadigan yig‘ilishida ishtirok etadi.

Tadbirlar davomida Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti yo‘lida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, hududdagi dolzarb ekologik, iqlim va suv muammolarini hal etish masalalari muhokama qilinadi.

Prezidentimiz ushbu masalalar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashadi, milliy pavilyonlardan iborat maxsus ekologik ko‘rgazmaga tashrif buyuradi. Sammitlar yakunida qator muhim hujjatlar qabul qilinishi kutilmoqda.

Davomi 2-betda

YER RESURSLARIDAN
FOYDALANISHDA YANGICHA
YONDASHUVLAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yer resurslaridan yanada samarali foydalanishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So‘nggi besh yilda mamlakatimizda yer munosabatlarini isloh qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, yer ajratish vakolati hokimlardan olinib, yer uchastkalarini auktsion orqali realizatsiya qilish tartibi joriy etildi. Shu davrda 616,3 ming gektar yer auktsion orqali ajratildi, byudjetga 1,4 trillion so‘m tushum ta’minlandi.

Eng muhimi, yerning haqiqiy egasi paydo bo‘lishi natijasida har bir gektardan olinayotgan daromad 3 karra oshib, 50-60 million so‘mga yetgan. Bugun ushbu yerlarda har yili 539 trillion so‘mlik mahsulot yetishtirilib, 2,1 milliard dollarlik eksport amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sohada hal etilishi lozim bo‘lgan qator masalalar ham borligi ko‘rsatib o‘tildi.

Jumladan, yerlar auktsion orqali ajratilayotgan bo‘lsa-da, ijarachilarning undan foydalanishdagi mustaqilligi hali yetarli emas. Shu sababli 117,6 ming gektar yer hozirgacha sotilmagan turibdi.

Shu bois, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ijaraga berishning yangi tizimini qo‘llash, joriy yilda yana 100 ming gektar yerni yangi tartib asosida auktsionga chiqarish rejalashtirilgan. Bu borada, ayniqsa, yerdan foydalanishda iqtisodiy rag‘batlarni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘tgan yili vodiy viloyatlari, Jizzax, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda sotilgan yerlarda ekinlarni mustaqil joylashtirish bo‘yicha joriy etilgan tajriba yaxshi samara bergani ta’kidlandi. Xususan, 2025-yilda 20 ming gektar yerning 16 ming gektarida tadbirkorlar o‘zlari tanlagan yuqori daromadli va eksportbop ekinlarni ekib, 150 million dollarlik eksport uchun zamin yaratgan. Endi ushbu tajribani kengaytirish, yerdan foydalanuvchilarga yanada ko‘proq iqtisodiy erkinlik berish muhimligi qayd etildi.

Davomi 2-betda

MO‘YNOQ: UNUTILGAN HUDUDDan
TARAQQIYOTgacha

Buloq suviday tiniq osmonda o‘rkach-o‘rkach oq bulutlar suzib yuribdi. Bir qarashda bulutlar qo‘l yetadigan darajada yaqin ko‘rinadi.

To‘rt tomonimiz quyuq to‘qay. Uni katta yo‘l ikkiga bo‘lib o‘tgan. To‘qayning adog‘i ko‘rinarmikan deya kaftimizni peshonaga qo‘yib, olislarga ko‘z tikamiz. Kunchiqardan kumbotar qadar biror belgi, chegara ko‘rinmaydi. Ko‘ksimizga yoqimli shabada uriladi. Bu shunchaki shabada emas, yangi O‘zbekiston nafasini diyorimiz bo‘ylab tarqatayotgan hayotbaxsh epkin! Bundan 8-9 yil avval ham biz kelgan ushbu manzil adog‘i ko‘rinmas sahro bo‘lganiga ishonish qiyin. Lekin bu inkor etib bo‘lmas haqiqat!

O‘shanda mana bu tiniq osmonni tez-tez chang qoplar edi. Chunki shamol yo‘lini to‘sadigan biror tiriklik topilmadi. Shu bois, issiq kunlarda garmisel, havo salqin tashlaganda izz‘irin zabtiga olardi. Orolning qurigan tubida hosil bo‘lgan sahro qumlari tuz aralash havoga ko‘tarilar edi. Kimsasiz kenglikda esa kaltakesak, cho‘l chumolisi kabi sanoqlik tirik jonni hisobga olmasa, hayot alomati sezilmasdi.

Biz turgan manzildan 150-200 chaqirim naridagi Mo‘ynoq tumani esa unutilgan, qarovsiz hudud edi. Unda umidi so‘nib borayotgan odamlar zo‘rg‘a kun ko‘rar, shu bois, aksariyat yoshlar o‘zi tug‘ilib o‘sgan uyini tashlab, olis shaharlarga ketish orzusida yashardi. Ana shunday bir vaziyatda hayot maromi birdan o‘zgardi. Insonlar qalbiga umid, sahro qumlariga yashillik urug‘i sepildi. Yashirib nima qildik, o‘sha paytda bu nihollar unishiga shubha bilan qaraganlar ham bo‘lgan. Ishonchimizga sabab esa **ezgu amal boshida uzoqni ko‘ra biladigan, strategik reja asosida puxta ish olib boradigan mamlakatimiz yetakchisi turgan edi.** Qisqara vaqtda ana shu faktor o‘z kuchini ko‘rsatib, amaliy ifoda topdi.

Davomi 3-betda

Tedros Adxanom Gebreyesus:

“O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI
TRANSFORMATSIYA QILISH BO‘YICHA KENG
KO‘LAMLI ISLOHOTLAR AMALGA OSHIRILMOQDA”

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)
bosh direktori Tedros Adxanom Gebreyesus
“Dunyo” AA muxbiri savollariga javob berdi.

— O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar ko‘lami va natijalarini qanday baholaysiz? Sizningcha, ulardan qaysi biri aholi uchun tibbiy xizmatlar sifati va ommabopligini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi?

— O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini o‘zgartirish bo‘yicha haqiqatan ham keng qamrovli dasturni amalga oshirmoqda. Islohotlarning ko‘lami va ularni rivojlantirishning aniq strategik ko‘rinishi alohida ajralib turadi.

Mamlakatingiz statsionar davolanish modelidan insonga yo‘naltirilgan kuchli birlamchi tibbiy-sanitariya yordamiga asoslangan tizimga izchil o‘tib bormoqda. Bunday yondashuv tibbiy yordamni aholiga yaqinlashtiradi, salomatlikni mustahkamlash hamda xizmatlardan keng foydalanishni ta’minlaydi.

Asosiy o‘zgarishlar kasalliklarning oldini olish va boshqarishga e’tibor qaratgan holda tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil

etish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, raqamli yechimlarni faol rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar allaqachon sog‘liqni saqlash tizimi qulayligi, samaradorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sohaning asosini tashkil etuvchi tibbiyot xodimlarini qo‘llab-quvvatlash kuchaymoqda: mehnat sharoitlari, rag‘batlantiruvchi mexanizmlar va tibbiy ta’lim tizimi takomillashtirilmoqda, bu esa islohotlar barqarorligini ta’minlaydi.

— O‘zbekiston va JSST o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati va o‘ziga xos jihatlarni qanday ta’riflagan bo‘lardingiz? Qaysi asosiy yutuqlarni alohida qayd etasiz?

— JSSTning O‘zbekistonda doimiy va faol ishtiroki mavjud bo‘lib, bu davlat idoralari bilan yaqin hamkorlikda ekspert ko‘magi ko‘rsatish, ilg‘or xalqaro tajriba bilan bo‘lishish va uni milliy sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi.

Davomi 2-betda

GIYOHVANDLIKKA QARSHI
KURASHISH — INSONIYATNING
MAJBURIYATI

BMT ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda 300 milliondan ortiq odam giyohvandlik moddalarini ta’siriga tushib qolgan. Har yili 600 mingga yaqin inson ushbu illatning qurboniga aylanmoqda.

Shundan ham bilish mumkin, giyohvandlik va narkojinoyatlar butun insoniyat uchun dolzarb muammolardan biri. Ular shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga doimo jiddiy xavf solib kelgan. Shu bois, xalqaro hamjamiyat ushbu illatlarga qarshi kurashishni muntazam davom ettirmoqda.

Bugungi globalashuv sharoitida bunday xavf-xatar barcha davlatlar qatorida O‘zbekistonni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish umummilliy harakatga aylanib, barcha kuch va vositalar safarbar etilayapti.

Davomi 2-betda

YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR KO‘RIB CHIQILDI

Boshlanishi 1-betda

Sanoatlashgan plantatsiya va chorvachilik loyihalari uchun 50 gektardan 500 gektargacha yer uchastkalarini aukstonga chiqarish, shu asosida joriy yilning o‘zida har bir viloyatda kamida 5 tadan yirik loyihalarni boshlash belgilandi. Ushbu loyihalar uchun suv va elektr ta‘minoti xarajatlarini qoplab berish, 3 yillik imtiyozli davr bilan 7 yilgacha arzon kreditlar ajratish, kredit foiz stavkalarini kompensatsiya qilib berish, yetishtirilgan mahsulotni qadoqlash xarajatlarining 50 foizgacha qismini subsidiyalash kabi qator moliyaviy qo‘llab-quvvatlash joriy etilishi ta‘kidlandi.

Taqdimotda yerdan yuqori daromad olishda ilg‘or xorijiy tajribani, ayniqsa, chet elning zamonaviy agrotexnologiyalarini keng qo‘llash masalasiga ham alohida e‘tibor qaratildi. Shu bilan birga, bu jarayonda milliy manfaatlarini himoya qilish lozimligi qayd etildi.

Xususan, xorijiy investorlarga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ijaraga berishning tartibi va shartlari qayta ko‘rib chiqiladi. Bundan buyon ularga faqat viloyat hokimliklari huzuridagi direksiyalar orqali, investitsiya miqdori kamida 10 million dollar bo‘lgan loyihalar doirasida, yavlov, lalmi va foydalanishdan chiqqan yerlarni aylanmaga qaytarish sharti bilan ikkilamchi ijaraga berish tartibi ko‘zlanadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi yerlarini olish bo‘yicha aukstonda faqat mahalliy dehqon va tadbirkorlar ishtirok etishini belgilash lozimligi ta‘kidlandi. Mudofaa, chegara, tarixiy-madaniy yerlar va o‘rmon fondi yerlari faqat mamlakatimiz fuqarolariga beriladi. Ayni paytda yerlarni ijaraga berish muddatini barcha turdagi yerlar uchun, shu jumladan, sanoat va qurilish loyihalarini amalga oshiradigan chet ellik investorlar uchun ham 49 yil etib belgilash taklif etildi.

Bugungi kunda qariyb 100 ming gektarga yaqin yerning ijara muddati tugagan. Shu bois, tadbirkorlar ushbu yerlarni qayta aukstonga chiqarmasdan, ijara muddatini uzaytirish bo‘yicha qulay va shaffof tartib joriy etish zarurligini bildirmoqda. Taqdimotda mazkur jarayonni davlat xizmatlari markazlari va elektron platformalar orqali amalga oshirish, kadastr, qishloq xo‘jaligi va adliya tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish, e‘tirozlar bo‘lmagan taqdirda qishloq xo‘jaligi yerlari uchun 30 yilgacha, noqishloq yerlar uchun 49 yilgacha uzaytirish tartibini joriy etish taklif qilindi. Soliq yoki ijara to‘lovidan qarzдорlik, sud nizosi yoki noqonuniy qurilish aniqlangan hollardagina ijara shartnomasi yangi muddatga uzaytirilmasligi belgilanmoqda.

Shuningdek, yer toifasini o‘zgartirish bilan nobudgarchilik to‘lovlarini hisoblash bilan bog‘liq jarayonlar haligacha qog‘oz shaklida yuritilayotgani tanqid qilindi. Bu esa kelishuv va qaror qabul qilish muddatining cho‘zilishiga, investorlar noroziligiga sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan barcha jarayonlarni raqamlashtirish, yerdan maqsadli foydalanish, suv samaradorligi va tuproq sifati kabi mezonlar asosida yerdan foydalanish samaradorligini baholash tizimini yo‘lga qo‘yish vazifasi qo‘yildi.

Yerga bo‘lgan ijara huquqini moliyaviy vosita sifatida kengaytirish, uni nafaqat tijorat kreditlari, balki lizing, ipoteka va bank kafolatini olish uchun ham garovga qo‘yish imkoniyatini yaratish zarurligi qayd etildi. Yer uchastkasini bo‘sh turgan yer sifatida hisobga olish tartibini soddalashtirish, yerlarni qayta ijaraga berishda shartnomalarni haq evaziga yoki tekinga tuzish mumkinligini aniq belgilash, shundan kelib chiqib, yer oldi-sotdisiga oid huquqbuzarliklar uchun jinoyi javobgarlik choralarini qayta ko‘rib chiqish taklif etildi.

Qolaversa, yer nazorati yo‘nalishida javobgarlikni kuchaytirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, yerlarni o‘zbohshimchalik bilan egallab olish uchun javobgarlikni faqat sug‘oriladigan yerlar uchun emas, qolgan barcha turdagi yer uchastkalariga nisbatan ham tatbiq etish zarurligi ta‘kidlandi.

Temir yo‘llari, avtomobil yo‘llari, aeroportlar, aerodromlar, aeronavigatsiya obyektlari, suv inshootlari va tarmoqlarini qurish maqsadlarida yerlarning toifasi o‘zgartirilganda nobudgarchilik to‘lovidan ozod qilish, yer jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilganida to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlarini soliqqa tortmaslik bo‘yicha takliflar bildirildi.

Kelgusida qishloq xo‘jaligi yerlari ijarachilariga hududlardagi 13 ta direksiya orqali, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlarga esa 14 ta investitsiya kompaniyasi orqali xizmat ko‘rsatilishi, ushbu tashkilotlar o‘z yo‘nalishlarida davlat organlari va tadbirkorlar o‘rtasida “ko‘prik” vazifasini bajarishi ta‘kidlandi.

Davlatimiz rahbari yer islohotlarini yangi bosqichga olib chiqish, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, tadbirkorlar uchun yanada ochiq va tushunarli tizim yaratish, shuningdek, sohada raqamlashtirishni jadallashtirish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

Boshlanishi 1-betda

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlarining ushbu uchrashuvi alohida ahamiyatga ega. Chunki 2027-2029-yillarda jamg‘armaga raislik qilish O‘zbekistonga o‘tishi rejalashtirilgan. Mamlakatimiz uchun bu 1997-1999 va 2013-2016-yillardagi raislik davrlaridan keyin tarixda uchinchi mandat bo‘ladi.

2023-yilda Dushanbe shahrida Tojikiston raisligidagi Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan majlisda O‘zbekiston yetakchisi tomonidan qator ahamiyatga molik takliflar bildirilgan edi.

Xususan, Prezidentimiz Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional

o‘zaro ishonch va sheriklikning ajralmas mexanizmiga aylandi.

2008-yildan buyon BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomiga ega bo‘lgan ushbu noyob platforma suv resurslarini boshqarish, ekologiyani sog‘lomlashtirish va Orolbo‘yi hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kompleks tarzda hal qilishda yagona mintaqaviy tuzilmaga aylandi.

Markaziy Osiyo so‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi oqibatlariga tobora ko‘proq duch kelayotgan va dunyo undan eng ko‘p zarar ko‘rishi mumkin bo‘lgan mintaqalaridan biri. So‘nggi 70 yil ichida Markaziy Osiyoda harorat Selsiy bo‘yicha 1,5-2 daraja ko‘tarildi. Bu ekologik muammolar keskinlashuviga, muzliklar erishi va cho‘llanish tezlashishiga ta‘sir ko‘rsatmoqda.



mexanizmlarini modernizatsiya qilish, ustuvor mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko‘makni jalb etish masalalari bo‘yicha tizimli hamkorlikni kuchaytirish, jamg‘armaning ishchi organlariga xalqaro konsultantlar ishtirokida Amudaryo va Sirdaryo havzalarni rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan rejalari ishlab chiqish, suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo‘llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e‘tibor qaratish kabi ilg‘or tashabbuslarni ilgari surgandi.

1993-yilda tashkil etilgan OQXJ o‘tgan davr mobaynida mintaqa davlatlari o‘rtasidagi

Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi ortib bormoqda. Bugungi kunda 37 milliondan ortiq kishi, asosan, suv ta‘minoti pasayishi, tegishli infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan bilan bog‘liq bo‘lgan, suv resurslari keskin yetishmaydigan hududlarda yashaydi.

Yevroosiyo taraqqiyot banki hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-2030-yillarda mintaqaga mamlakatlari uchun suv va iqlim infratuzilmasiga zarur bo‘lgan investitsiyalarning umumiy hajmi qariyb 29,2 milliard AQSH dollarini tashkil etadi.

Orolbo‘yi mintaqasining holati vaziyatini qiyinlashtirmoqda — shamollar Orolning qurigan tubidan har yili taxminan 15-75 million tonna qum, chang va tuzni uchirib ketadi. Bu esa sezilarli masofalarda havo sifatini yomonlashtiradi va bevosita ijtimoiy-iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi.

Shu sababdan so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoning mintaqaviy kun tartibida ekologik masalalar tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Suv resurslari bilan bog‘liq muammolar, yer degradatsiyasi, iqlim o‘zgarishi, Orolbo‘yining holati endi alohida emas, balki mintaqaning umumiy barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari kontekstida ko‘rilmoqda.

Mintaqa mamlakatlarining iqlim bilan bog‘liq xalqaro tadbirlarda faollashganini ta‘kidlash joiz. Xususan, BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasi konferensiyalarida Markaziy Osiyo mamlakatlari “5 mamlakat — 1 mintaga — 1 ovoz” tamoyili ostida chiqish qilib, iqlim muammolari bo‘yicha milliy ustuvor masalalar va umumiy mintaqaviy yondashuvlarni taqdim eta boshladi.

Orol inqirozi oqibatlariga moslashish masalasida sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, Orol dengizining qurigan tubida O‘zbekiston tomonida so‘nggi 5 yil ichida 2 million gektar o‘rmonzor barpo etildi, Qozog‘iston tomonida 1 million gektardan ortiq maydonda o‘rmon-melioratsiya ishlari bajarildi.

Mintaqaviy hamkorlikning yorqin natijalaridan yana biri Shimoliy Orolbagi vaziyat yaxshilanishi bo‘ladi. Sirdaryo bo‘yidagi suv omborlari ish tartibini muvofiqlashtirish va davlatlararo kelishuvlarni bajarish hisobiga so‘nggi uch yilda dengizga 6 milliard kub metr dan ortiq suv kelib tushdi. Natijada Shimoliy Orolning hajmi 2022-yil oxiridagi 18,9 milliard kub metr dan 2025-yil oxirida 23 milliard kub metr gacha oshdi.

Bilim almashinuvi va ilmiy ekologik ekspertiza sohasida ham mintaqaviy hamkorlik kengaymoqda. O‘zbekistonda atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish bo‘yicha Markaziy Osiyo universiteti tashkil etilishi ushbu hamkorlikning natijasi bo‘lib, mintaq shu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash va qo‘shma tadqiqotlarni rivojlantirish uchun yangi maydonga aylandi.

Ostona shahrida bo‘lib o‘tadigan mintaqaviy ekologik sammitlar iqlim masalasida umumiy maqsadga erishish yo‘lidagi yana bir qadam bo‘ladi. Iqlim va ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yangi va amaliy yechimlarni ishlab chiqish nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlarining global iqlim kun tartibiga qo‘shgan hissasini oshirishga, balki ekotizimlar barqarorligini ta‘minlash, havo ifloslanishini kamaytirish, tabiiy resurslarni va ustuvor ravishda suv va energetika resurslarini barqaror boshqarish bo‘yicha mintaqaviy vazifalarni hal etishga ham xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

Tedros Adxanom Gebreyesus: “O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH BO‘YICHA KENG KO‘LAMLI ISLOHOTLAR AMALGA OSHIRILMOQDA”

Boshlanishi 1-betda



Hamkorligimiz yagona maqsad O‘zbekistondagi har bir inson, yashash joyidan qat‘i nazar, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmasdan, profilaktikadan tortib, palliativ yordamgacha bo‘lgan zarur tibbiy xizmatlardan foydalana olishini ta‘minlash, ya‘ni aholini sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan to‘liq qamrab olishga erishishga asoslangan.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi transformatsiya qilinishi bu kabi hamkorlikning yorqin namunasidir. JSST ushbu jarayonning siyosatini ishlab chiqishdan tortib, uni amalga joriy etish va natijalarni baholashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda kuzatib bormoqda.

Islohotlarning dastlabki bosqichida kompleks brigadalarni shakllantirish, o‘rta tibbiyot xodimlari rolini kengaytirish, jumladan, shifokorgacha bo‘lgan maslahatlar va birlamchi ko‘rtni joriy etish, patronaj hamshiralari institutini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratildi. Shu bilan birga, JSST protokollari va klinik tavsiyalari asosida yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish va davolashga doir zamonaviy yondashuvlar tatbiq etilmoqda.

Shu munosabat bilan bir Prezidentning erishilgan natijalarni mustahkamlab, birlamchi bo‘g‘inni yanada kuchaytirishga qaratilgan islohotlarning yangi bosqichini boshlab bergan farmoni qabul qilinganini olqishlaymiz.

Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni ta‘minlash va sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash hamkorlikning muhim yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. 40 dan ortiq hamkor ishtirokida ishlab chiqilgan Jamoat salomatligi xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan milliy harakatlar rejai qabul qilinishi idoralararo hamkorlik va strategik rejalashtirishning

yuksak darajasidan dalolat beradi. Shuningdek, O‘zbekiston tibbiyot, veterinariya va ekologiya sohalari mutaxassislari sa‘y-harakatlarini birlashtiruvchi “Yagona salomatlik” yondashuvini faol ilgari surmoqda.

JSST birlamchi bo‘g‘in shifokorlari-yu laboratoriya mutaxassislaridan tortib, boshqaruvchilar va milliy yetakchilargacha — barcha darajadagi kadrlar salohiyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega ekanidan faxrlanadi. Birgalikdagi sa‘y-harakatlar orqali kasalliklarning samarali oldini olishga, tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlashga va inqirozlariga tezkor munosabat bildirishga qodir tizim shakllantirilmoqda.

Onkologik kasalliklarga qarshi kurashishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. JSST O‘zbekistonning ushbu muammoni hal etish, jumladan, onkologiya xizmatini modernizatsiyalash uchun Islom taraqqiyot banki moliyaviy mablag‘larini jalb qilishga siyosiy qo‘yatini yuqori baholaydi. Sifatli onkologik yordamdan foydalanish

imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda, shuningdek, xalqaro sheriklar bilan hamkorlik, shu jumladan, bolalar saratoniga qarshi kurashish bo‘yicha global tashabbuslarda ishtirok etish rivojlantirilmoqda.

— **Kelajakda JSST va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikning qanday ustuvor yo‘nalishlarini ko‘ryapsiz?**

— JSST O‘zbekiston bilan qator muhim yo‘nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirish uchun katta salohiyatni ko‘rmqda.

Avvalo, bu xizmatlar sifati va uzluksizligini ta‘minlagan holda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami islohotlarini yanada kengaytirish, jumladan, bemorlarni yo‘naltirish tizimini takomillashtirish va jamoaviy yondashuvni ta‘minlashdir.

Aholining bevosita xarajatlarini kamaytirish va resurslardan yanada samarali foydalanish orqali sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini isloh qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Kadrlar salohiyati va tibbiy ta‘lim tizimini, ayniqsa, oilaviy tibbiyot, hamshiralik ishi va qishloq joylarda mutaxassislarga bo‘lgan talabni qondirish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ruhiy salomatlik, yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish, iqlim o‘zgarishining salomatlikka ta‘sir, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimining zo‘ravonlikning oldini olish va unga javob berishdagi roli kabi sohalarida qo‘shimcha imkoniyatlar ochiladi.

O‘zbekiston onkologiya sohasida, jumladan, milliy strategiyani ishlab chiqish, registrlarni modernizatsiyalash va zamonaviy klinik protokollarni joriy etishda yetakchilik qilmoqda.

Umuman olganda, gap zamonaviy, kompleks va ilmiy asoslangan, avvalo, kasalliklarning oldini olishga yo‘naltirilgan sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirish haqida bormoqda.

JSST ushbu o‘zgarishlarni jadallashtirishda O‘zbekistonn bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlaydi.

— **O‘zbekistonga tashrifingizdan nimalarni kutapsiz?**

— Tashrifim mamlakat rahbariyati va hamkorlar bilan mazmunli muloqot o‘tkazish, oraliq natijalarni sarhisob qilish va sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni rivojlantirish bo‘yicha keyingi qadamlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami islohotlarining mahallalar darajasida amalga oshirilishi bilan amalda tanishish, shuningdek, tibbiyot xodimlari va bemorlarning fikrlarini eshitish men uchun, ayniqsa, dolzarbdir. Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uchun sifati va arzon tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta‘minlashga bo‘lgan umumiy intilishimni tasdiqlaydi.

Tashrif hamkorligimizni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki beradi va kelgusi yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarni, jumladan, birlamchi tibbiy yordam, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish tizimi va kasalliklarning oldini olishda kelishishga imkon beradi.

Avvalo, o O‘zbekistonning barcha aholisi uch

MO‘YNOQ: UNUTILGAN HUDUDdan TARAQQIYOTgacha



Salim DONIYOROV,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Ilk tashrifdan ungan gullar

Qoraqalpog‘ elida “Qadamingizdan gul usin” degan ezgu tilak bor. Hayot hikmati shundaki, tilak egasini to‘g‘ri topsa, albatta, ijobat bo‘ladi. Qoraqalpog‘ eli doim Prezidentimiz tashrifidan quvonib, shu tilakni takrorlab yuradi. Bugun ushbu ezgu niyatning ijobatini ko‘rib turibmiz.

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi tashrifni qoraqalpog‘ zaminidan boshlagan edi. Ushbu tashrif qaysidir ma‘noda yangi O‘zbekistondagi islohotlarning amaliy qismi boshlanganidan dalolat berardi. Albatta, o‘sha paytda biz islohotlarning qanchalik ko‘lamdor ekanini, qisqa vaqtda hatto qaroqroq sahroni ham yashil maydonga aylantira oladigan darajada hayotbaxsh bo‘lishini tasavvur qila olganimiz yo‘q. Orolning qurigan tubiga ekilgan cho‘l o‘simliklarini borib ko‘rsangiz, yangi O‘zbekistondagi islohotlar haqidagi qarashlaringiz yanada jonlanadi. Inson xalqini yaxshi ko‘rib, so‘zi va amal birligi ila harakat qilsa, sahroga ham hayot baxsh eta olishiga amin bo‘lasiz.

Chunki Orolning qurigan tubi yashil qoplama bilan qamrab olinaypti, ilk ekilgan nihollar kosmosdan ko‘rina boshladi deya ta‘riflash oson. Ammo yillar davomida unutilgan olis manzilga borib odamlarga umid berish, sho‘rlagan tuproqda, suvsizlikka chidamli bir



dona buta undirish... izillagan sahroning jon olar issig‘i, suyak-suyakkacha o‘tib ketadigan sovug‘iga chidab, qalin o‘rmonga aylanitirish, hatto aytishga ham oson emas!

Bunga Qoraqalpog‘iston, xususan, Orolning qurigan tubiga qilgan safarimiz davomida bot-bot amin bo‘ldik.

Biz — “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetolari tahririyati vakillari Orolning qurigan tubi sari yo‘l oldik. Maqsadimiz ilk ekilgan nihollarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rish, Orolbo‘yi aholisining quvonchiga sabab bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan tanishish edi.

Yo‘l-yo‘lakay yon-atrofga qaraymiz. Ba‘zi joylarda quyuv to‘qay, goho har joy-har joydagi qumtepalar ustida ikki-uchta saksovlul ungan. Ana shu tepaliklarga qarata hamrohimiz, gazetamizning Qoraqalpog‘istondagi vakili Minajatin Qutlimuratov izoh beradi: “Ko‘rdingizmi, saksovullar qancha qumni “ushlab” qolgan!”.

O‘sha tomonga diqqat bilan qaraymiz. Saksovlul ungan tepalik tekis joydan 1-1,5 metr baland. Tepaliklarning har biri tonnalab qumdan iborat. Qumtepalarini odam bo‘yi barobar bo‘lgan ikki-uch tup saksovlul tutib turibdi. Yashil qoplama endi ungan mahalda bu manzil tekis bo‘lgan. So‘ng ko‘chmanchi qum shamol bilan ko‘tarilganida yangi ungan saksovullar ildizi qumning ma‘lum qismini saqlab qolgan. Shu sabab past-baland tepaliklar paydo bo‘lgan ekan. Keyin yashil qoplama bo‘y cho‘zib, urug‘i sochilib, o‘zidan ko‘paygan. Tuz aralash qumlar ko‘chishi keskin kamaygan. Ana shu manzaraning o‘ziyoq bir tup yashil butoq tonnalab tuz va qum aralashmasini yerda saqlab qolishini isbotlaydi. Bu Orolning qurigan tubi uchun yashil makon qanchalik ahamiyat kasb etishidan dalolat. Safarimizdan bir kun avval kuchli bo‘ron bo‘lganiga qaramay, osmon buloq suvi kabi tiniq ekanining asl sababi ham shu.

So‘z va amal birligidan quvvat olib

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog‘istonni ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish masalalarini eng ustuvor vazifalardan etib belgilab bergan. Ayniqsa, Mo‘ynoq va Orolbo‘yi hududini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib keladi.

2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida davlatimiz rahbari Orol muammosiga butun dunyo nigohini qaratgandi. 2018-yilda esa Orolning qurigan qismida ekologik muvozanatni tiklash, hududda yashil qoplama barpo etish hamda daraxt ko‘chatlarini ekish tashabbusi bilan chiqqan edi. Ushbu tashabbus bilan global muammo sanalgan Orolning qurishiga qarshi amaliy ish boshlandi. O‘tgan davrda Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlaridagi 2 million gektarda o‘rmon-melioratsiya ishlari bajarildi. Xususan, 1,453 million gektarga aviatsiya, 462 ming gektarga maxsus texnikalar yordamida cho‘l o‘simliklarining urug‘lari, 85 ming gektar maydonga turli xil ko‘chatlar ekildi. Natijada hududning flora va faunasi qayta tiklanmoqda.

Shu so‘zlarni yozaymiz-ya, keyingi yillardagi o‘zgarishlarni ifodalash uchun so‘z ta‘rifi kamdek. Chunki har bir raqam ortida qancha mehnat, mamlakat yetakchisining bir soniya ham tinim bilmay izlanishi borligini teran anglab turibmiz. Ammo shunga munosib bo‘z, ifoda topa olmay jim qolamiz. Ha, ba‘zan so‘z

“ Agar qiyoslash joiz bo‘lsa, bundan 10 yil avval tuman iqtisodi Orolning qurigan tubi kabi “sahro”ga aylangandi. Bugun u qaytadan jonlanmoqda. Shunga munosib tarzda aholining yashash sharoiti yil sayin yaxshilanib boryapti.



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.

farzandlik burchini bajarishga bo‘lgan kuchli ishtiyoq, so‘z va amal birligining ifodasi. Shu bois, yangilanishlar “islohot qilindi” degan nom uchun emas, tom ma‘noda xalqni rozi qilish yo‘lidagi sa‘y-harakatlardir...

O‘shanda ekilgan nihollar o‘rmonga aylanibdi

Mashinamiz to‘qayga xos past-baland yo‘lda bir maromda ketib borar edi. Oldimizda yo‘l chetida tizilib turgan ikki-uchta mashina ko‘rindi. So‘ng ochiq maydonda belkurak olib, qopda nimadir sochib yurgan odamlar ko‘zga tashlandi. Qiziqish sabab ularning yoniga to‘xtadik. Tasodifni qarang, ular Orolning qurigan tubida iqlim sharoiti, tuproq unumdorligiga qarab, daraxt va buta turlarini tanlab ekadigan olimlar guruhi, soha mas‘ullari ekan. Tabiiyki, maqsadi mustarak insonlar sifatida tezda til topishdik. Ular suhbat chog‘ida juda qiziq, muhim ahamiyatga ega ma‘lumotlarni aytib berdi.

— Orolni yashil makonga aylantirish faqat ko‘chat ekish, urug‘ sepişdan iborat emas, — deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi agentligi rahbari Oybek Aminov. — Ishlarni innovatsion va ilmiy yondashuv asosida tashkil etishga jiddiy e‘tibor beryapmiz. Davlatimiz rahbari oldimizga mana shunday muhim vazifa qo‘ygan. Olimlar bilan hamkorlikda urug‘larni maxsus granulalash va kapsulalash orqali ekish amaliyotini sinovdan o‘tkazyapmiz. Kapsula deganimiz — zarur mineral o‘g‘itlar yig‘indisi. Ilmiy asosda necha kilo urug‘ga qaysi o‘g‘itdan qancha qo‘shish kerak ekani ishlab chiqilgan. Shunga ko‘ra, minerallar qorishmasi va urug‘lar aralashitiriladi va yumaloq holatga keltiriladi. Kapsula namlikni yaxshi saqlaydi. Og‘irliqi sabab shamolda uchib ketmaydi. Samolyotda sepsila ham mo‘ljallangan yerga aniq tushadi. Shu tariqa kapsula cho‘l sharoitida o‘simliklarning unuvchanlik darajasini keskin oshiradi. Hozir boshqa joylarga nisbatan tuprog‘i ko‘proq sho‘rlangan, tuzli qum aralash yerda tajriba uchun urug‘ qadayapmiz. Maqsadimiz eng murakkab sharoitda ham yashil qoplama yaratishda samaradorlikka erishish.

Oybek Aminovning so‘zlarini tinglar ekanmiz, Prezidentimizning islohotlarning ilk kunlaridayoq kitobxonlik targ‘ibotiga alohida e‘tibor bergani yodimizga tushdi. So‘ng mamlakatimiz yetakchisining “Madaniyat Mo‘ynoqdan boshlanadi” degan so‘zini esladik. Bugun bu so‘z zamirida katta hayotiy haqiqatlarni, ulug‘vor maqsadlar ro‘yobini ko‘rib turibmiz. Orolbo‘yi hududi keyingi yillarda ham ijtimoiy, ham madaniy, ham iqtisodiy jihatdan jadral rivojlanib, aholi turmush darajasi tubdan yaxshilangani fikrimiz bayonidir.

Bugungi islohotlar kitob, bilim va ma‘rifat bilan yanada mustahkamlanib boryapti. Yashil qoplamani yaratishdagi ilmiy izlanishlar fikrimizning yaqqol misolidir. Tajriba maydonida olimlar bilan suhbatimiz qizg‘in kechdi. Vaqt hukmiga bo‘ysunib, yo‘lda davom etdik. Endi Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi agentligi rahbari Oybek Aminov bizga hamrohlik qilib, ilk nihollar qadalgan manzil sari boshladi.

Ochiq‘i, 2018-2019-yillarda ekilgan saksovlul, yulg‘un kabi o‘simliklarni ko‘rib,

haqiqiy o‘rmonga yetib kelganimizni angladik. O‘rmon oralab yulg‘unlarga bo‘ylab ko‘ramiz. Ularning aksariyati odam bo‘yidan ancha baland. Oyog‘imiz ostida esa son-sanoqsig‘ chig‘anoqlar! Qadam bosishingiz hamon ular o‘ziga xos ovoz chiqarib, qumga chuqur botadi. Axir bir paytlar bu yerda dengiz, 50-60 metr chuqurlikda suv bo‘lgan.

Katta-kichik kemalar suzib yuradigan dengiz sohilida baliqchilik xo‘jaliklari faoliyat olib borgan. Keyin suv tortildi. Buning oqibatida global iqlim muammosi yuzga kelgani haqida takrorlashimiz shart emas. O‘sha paytlarda bu yer sahroga aylangan, tepadan qaragan kishi biyoblik ramzi bo‘lgan sarg‘ish rangni ko‘rar edi. Mamlakatimiz Liderining hayotbaxsh tashabbusi sabab hozir bu maydon yashil tuzda ko‘zga yaqqol tashlanadi. Safar chog‘ida shunga amin bo‘ldikki, keyingi yillarda amalga oshirilgan ishlar ekologik muammoni yumshatish va unga qarshi kurashishda katta samara bermoqda. Bu yerda yangi ekotizim yariyib, hayvonot dunyosi paydo bo‘lyapti. Safar chog‘ida tulki va quyonlarning yugurib yurganini ko‘rdik. Qayerdandir sayroq‘i qushning xonishi eshitiladi. Hatto bu yerda kiyiklar ham bor ekan. Mutaxassislar, xususan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vakillarining ta‘kidlashicha, hududda yashilik paydo bo‘lgach, qum va tuz bo‘ronlari 50 foizgacha kamaygan. Bu juda katta natija. Masalan, qo‘shni mamlakatlarda bunday bo‘ronlar haligacha tez-tez kuzatiladi. Yaqinda ham ular ana shunday bo‘ronlarning birini boshdan kechirdi.

Hozir Orolning suvi qurigan o‘zanida turibmiz, — deydi Mo‘ynoq davlat o‘rmon xo‘jaligi rahbari Alisher Bekmurodov. — Bu yerlarda 2018-yildan yangi hayot boshlandi deb bemalol aytga olamiz. Hududga cho‘l sharoitiga chidamli o‘simlik turlari ekildi. Buta va o‘simliklar paydo bo‘lishi bilan shu yerdagi yovvoyi hayvonot dunyosi uchun ham yangi hayot boshlandi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz tashabbusi bilan besh-olti joyda tik quduqlar qazildi. Hayvonlar, qushlar, o‘simliklar — hammasi shu yerdan suv ichadi. Aytish mumkinki, hududda hayot yangi bosqichga o‘tdi. Yaxshilab kuzatsangiz, yulg‘un va saksovullar orasida oziqlanib yurgan quyon va boshqa turli hayvonlarni uchratasiz. Hozir ularning ko‘payish davri.

Bilasizmi, bu joylar yaqin yillarda qadar bosh-adog‘i yo‘q oppoq qum edi. Shamol qumni u yoqdan-bo‘yoqqa ko‘chirib, ulkan barxanlar paydo qilardi. Ilgari mana shu cho‘llarda yana o‘simliklar o‘sadi, hayvonlar qaytib keladi desa, birov ishonmasdi. Mana, hozir ko‘z o‘ngimizda bu reallikka aylandi. Ustiga-ustak, mazkur hududda ov qilish qat‘iyan taqiqlangan. Shu sabab hayvonlar populyatsiyasi juda yaxshi. Hammasi shunday davom etsa, besh-o‘n yildan keyin bu yer ulkan qo‘riqxonaga aylanib ketishi hech gapmas.

Mutaxassislar ta‘kidlashicha, keyinchalik bu yerda faqat cho‘lga chidamli butalar emas, boshqa o‘simlik turlarini ham ekib, katta yaylovga aylantirsa bo‘lar ekan. Shu orqali chorvachilik, asalarichilik kabi boshqa tarmoqlarni rivojlantirish imkoni bor. Masalan, yulg‘un may oyinining boshida gullaydi. Mazkur hududda yantoq ham ko‘p ekan. Demak, asal olish uchun yetarli sharoit mavjud. Bu iqtisodiy

barqarorlikni mustahkamlash uchun yaxshi imkoniyat. Qarang, uzoqni ko‘zlab, puxta reja asosida bajarilgan ishning samarasi va ko‘lami qanchalik keng!

Bu yil qish va bahor barakali keldi. Bunday paytda yerda namlik yaxshi bo‘ladi. Ana shunday g‘animat fursatdan unumli foydalanish har qachongidan ham muhim.

— Yerdagi namlik yaxshi ekani bois, joriy yilda yana 230 ming gektar maydonga urug‘ qadaldi, — deydi Oybek Aminov. — Jarayonda 700 dan ziyod maxsus texnika va mexanizmlardan, shuningdek, borish qiyin bo‘lgan hududlarga urug‘ sochish uchun ikkita samolyotdan unumli foydalanildi. Namlikni saqlash hamda ko‘chib yuruvchi qumlarni to‘xtatish maqsadida o‘ziga xos agrotexnik usullar qo‘llanilib, maxsus jo‘yaklar tortildi. Bu joylarga asosan sho‘r hamda qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan qorabaroq, yulg‘un, sarsazan, qandim, cherkez hamda izen kabi o‘simliklar ekilmoqda. Oldimizda turgan asosiy strategik maqsadlardan biri — 2030-yilga qadar mazkur hududda yana 1 million gektardan ziyod maydonda yashil qoplamalarni barpo etishdir. Bu borada maxsus saksovlul ko‘chatxonalarining faoliyati tobora kengaytirilmoqda.

Baraka va unumdorlik siri shukronalikda, mardlikda

Mo‘ynoq mamlakatimizning eng shimoliy hududi. Undagi hayot maromi, yurak urishi Orol dengizi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, Orolning qurigan tubidagi yashillik bo‘y cho‘zishiga hamohang ravishda mo‘ynoqliklar qalbidila ham umid, ishonch mustahkamlandi. Aniq raqamlarga e‘tibor bersak. O‘tgan 2025-yilda tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 621,1 milliard so‘mni tashkil etgan. O‘sish sur‘ati 121,4 foizga yetib, respublikadagi ulushi 2,1 foizni tashkil qilgan.

Ilgari mo‘ynoqliklar og‘ir turmush sharoitida yashagan. Odamlar hatto kundalik ehtiyojlarini qondirishda qiyналgan, bolalar uchun maktab formasi va o‘quv qurollarini sotib olishga ham imkoni bo‘lmagan. Yoshi ulug‘ insonlardan biri bu haqda so‘zlab, ko‘z yoshi bilan o‘tmishni esladi. Eski sandiqlarda saqlangan kiyimlardan foydalanishga, yozuv qurollarini qayta-qayta ishlatishtiga majbur bo‘lganliklarini aytadi. Ana shunday og‘ir vaziyatda qolgan tuman ahli bugun eksport, investitsiya loyihalari haqida bahs yuritib, uni yana qay yo‘sin ko‘paytirish borsida fikr almashyapti. Birgina misol, 2025-yilda Mo‘ynoqda jami 172 milliard so‘mlik 10 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan. Natijada 195 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Yana bir muhim fakt. O‘tgan yil davomida xorijiy investitsiyalar va kredit mablag‘lari hisobidan jami 5,1 million dollarlik investitsiyalar o‘zlashtirildi. Bajarilgan ishlar natijasida kambag‘allik darajasi 5,5 foizdan 2,7 foizga tushirilgan.

Agar qiyoslash joiz bo‘lsa, bundan 10 yil avval tuman iqtisodi Orolning qurigan tubi kabi “sahro”ga aylangandi. Bugun u qaytadan jonlanmoqda. Shunga munosib tarzda aholining yashash sharoiti yil sayin yaxshilanib boryapti. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, Mo‘ynoqning mard va tanti aholisi sinovlardan mardona o‘ta oldi.

Davlatimiz rahbari 2018-yilda Mo‘ynoq tumaniga tashrif chog‘ida: “Orol fojiasidan eng ko‘p zarar ko‘rgan asli shu — Mo‘ynoq aholisi. Ularning sabr-qanoati, vatanparvarligi, mehnatkashligi uchun rahmat aytishimiz, shunga munosib xizmat qilishimiz kerak”, degan edi.

Safar chog‘ida Mo‘ynoqqa borib, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar bilan tanishar ekanmiz, mamlakatimiz yetakchisining ilk tashrif chog‘ida aytgan fikrlari hayotda o‘z aksini topganiga ko‘p bora guvoh bo‘ldik. Mard va tanti mo‘ynoqliklar bilan suhbatlashdik, ularning ko‘zlarida kechagi dard va bugungi umidni ko‘rdik. Orol dengizi qurishi natijasida

havoga ko‘tarilgan tuz va chang nafaqat tabiatni, balki inson salomatligini ham izdan chiqargan edi. Oqibatda onkologik va boshqa og‘ir kasalliklar ko‘payib, aholi orasida xavotir va tushkunlik kayfiyati hukm sura boshlagan.

So‘nggi yillardagi keng ko‘lamli islohotlar Mo‘ynoq ahliga umid va ishonch berdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Orol tubida yashil qoplamalar barpo etilishi, tuman infratuzilmasining yangilanishi, ijtimoiy sohadagi islohotlar hudud hayotini tubdan o‘zgartirdi. Mahalliy aholi ta‘biri bilan aytganda, “hayot bu yerda qayta tug‘ildi”.

Tantilikni qarangi, tuman ahli ushbu imkoniyatlarga shukrona aytib, halol mehnat ila ro‘zg‘or tebratmoqda. Safarimiz davomida Mo‘ynoq tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Murod Jumaboyev juda qiziq fakti aytdi.

Orolbo‘yi aholisining ijtimoiy sharoitini yaxshilash, doimiy daromad manbalarini yaratish borasida ham qator amaliy ishlar olib borilyapti ekan. Xususan, Orol dengiziga saqlanib qolgan yagona noyob jonivor — artemiya sistasi sanoatini rivojlantirish maqsadida maxsus davlat unitar korxonasi tashkil etilgan. Bugun mahalliy aholi ushbu qimmatbaho urug‘ni yig‘ib topshirish orqali o‘zlari uchun qo‘shimcha daromad topyapti.

Artemiya sistasi ma‘lum mavsumda dengizda suzib, qirg‘oq sari oqib keladi. Sohilda ularni tutish ilinjida mo‘ynoqliklar qator tiziladi. Hamma belgilangan joyida turadi. Hech kim boshqalar chegarasini buzib o‘tmaydi. Artemiya sistasi kimning ro‘parasiga oqib kelsa, o‘sha kishi unga egalik qiladi. Boshqalar esa jim qarab turaveradi. Tasavvur qilyapsizmi, ro‘parangizda kilosi falon so‘m turadigan mahsulot oqib kelyapti. Ammo u kimdir chizgan chiziqdian bir qadam narida ekani bois, egalik qila olmaymiz. Kun davomida bu holat o‘n, yuz marta takrorlansa ham dengiz tortiq etgan nasibaga rozi bo‘lib uyga qaytasiz. Oh, bu mardlik, tantilikni qanchalik ta‘riflamang, so‘z yetmaydi!

Jamoamiz bir-biriga ma‘noli qaraydi. Har kim o‘zicha bundan hikmat izlaydi. Ana shu hikmatning qurilishi bitta o‘qildizga birlashadi, nazarimda. Bu — mardlik, berilgan rizqqa shukronalik hissi. Mo‘ynoqning barakasi, boshlangan ishlarning tez rivoj topib, sho‘rlagan sahrosida ham yashillik unib ketaverishining sirlaridan biri shunda bo‘lsa, ne ajab?!

Safardan keyingi o‘ylar

Ba‘zan uzoq safarlar kishiga yillar davomida shakllangan qarashlarni yangilaydigan teran xulosalarni hadya etadi. Safarimiz yakunlanib, ortga qaytar ekanmiz, yana ko‘kka ko‘z tikamiz. Osmon buloq suvidan ham tiniroq ko‘rinadi. Negadir “Osmon — oyina” degan ibora fikr-yodimni band etadi. U vaqti-vaqti bilan bizga o‘zimiz bajorgan ishlari, asl qiyofamizni ko‘rsatib turadi. Shunday o‘ylar og‘ushida ketar ekanmiz, undagi oppoq bulutlar ko‘zimizga qirg‘oqqa urilayotgan dengiz to‘lqinini eslatadi. Moviy kenglik esa sokin chayqalayotgan dengizni yodga soladi. Bularning barchasi jam bo‘lib yangi O‘zbekistondagi islohotlarning osmon oyinasidagi tasviridagi taassurot uyg‘otadi. Aslida ham shunday, nazarimda.

Toshkentga qaytganimizda esa Prezidentimiz Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig‘ilishida ishtirok etish uchun Qozog‘istonga amaliy tashrif bilan borishi haqidagi xabarlar tarqala boshladi. Ana shu xabarlariga payvasta holatda dilda bir ezgu tilak tug‘ildi: Orolning moviy osmoni butun dunyoga yoyilib, ekologik masalalar barham topsin. Insonlar qalbi ham ana shunday tinqlashib, ko‘ngillarga umid va ishonch bag‘ishlayotgan, hayotimizni tubdan o‘zgartirib, inson qadri uchun qilinayotgan ezgu va tarixiy bebaho sa‘y-harakatlar doimo bardavom bo‘lsin!



4 JAMIYAT

Dolzarb mavzu

BIOSFERA MUSAFFOLIGI — SOG'LOM GENOFOND GAROVI

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishini biosfera boyliklaridan samarali foydalanishsiz tasavvur etish qiyin. Inson biosfera boyliklaridan foydalanish jarayonida unga faol ta'sir ko'rsatadi. Nabotot, hayvonot va odam yashashi uchun zarur muhit, ya'ni havo tarkibidagi asosiy to'rt element (kislorod, uglerod, vodorod va azot)ning quyosh energiyasi ta'siri va suv ishtirokida amalga oshadigan ekologik aylanishi muvozanatini buzadi. Shuningdek, tuproq, havo va suv ifloslanadi. Tirik organizmlar genofondiga zarar yetadi.

Jahonda, jumladan, mamlakatimizda aholi genofondini saqlab qolish uchun tabiiy muvozanat barqarorligini muntazam nazorat qilish, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish va samarali amalga oshirish dolzarb vazifadir. So'nggi yillarda insoniyatning tabiiy resurslarni o'zlashtirish, qayta ishlash va qo'shimcha qiymatga asoslangan yangi mahsulotlarni yaratish bilan bog'liq amaliy faoliyati jadallashdi. Yirik aholi punktlaridagi urbanizatsiyalashuv, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi issiqxonalar, mavsumiy issiqlik ta'minoti korxonalari faoliyati, ishlab chiqarish hamda qurilish obyektlari salmog'ining ortishi tufayli ekologik vaziyat yomonlashadi. Atrof-muhit ifloslanishida, ayniqsa, transport vositalarining ta'siri katta.

Transport vositalari atmosfera havosini turli zaharli gazlar bilan ifloslantirishdan tashqari, dunyo aholisi nafas olishi uchun zarur kisloroddan 3-4 barobar ko'p kislorod yoqadi.



Bitta avtomobil dvigateling yillik kislorod sarfi 20-30 kishining yil davomida nafas oladigan kislorodiga teng. Bundan tashqari, atmosferaga har xil gaz (is gazi, azot oksidi, uglevodorod, qo'rg'osinning zaharli birikmalari, chang, qurum) chiqaradi. Xususan, atmosfera havosini azot oksidi bilan 45,7 foiz, uglevodorod bilan 42 foiz zararlantiradi. Yer yuzida bir yilda havoga chiqarib tashlanadigan 100 million tonnaga yaqin is gazining 75,5 million tonnasi yoki 78 foizi avtotransport vositalari hissasiga to'g'ri keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, bir yilda bitta avtomobil o'rtacha 4 tonna oksigenni havodan olib, tashqi muhitga 800 kilogramm is gazi, 40 kilogramm azot oksidi va 200 kilogramm atrofida turli zaharli modda, jumladan, uglevodorod chiqaradi. Prezidentimizning 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bilan barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanib tabiatni asrash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va ifloslanishni kamaytirish orqali aholi salomatligini muhofaza qilish va boy tabiiy resurslarni kelajak avlodga yetkazish zarurligi belgilangan. Konsepsiyaning o'zaro uzviy bog'liq olti yo'nalishidagi tegishli vazifalarni amalga oshirish mamlakatimiz fuqarolari, xususan, soha mutaxassislari va olimlar zimmasiga katta vazifalar yuklaydi. Shu bois, atmosfera havosi, suv havzalari va tuproqning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishini minimallashtirish yo'nalishida bajarilayotgan ikkita ilmiy ishlarni haqida ma'lumot berishni maqsad qildik.

Farhod RAHIMOV,
texnika fanlari doktori, professor

Transport vositalari atmosfera havosini turli zaharli gazlar bilan ifloslantirishdan tashqari, dunyo aholisi nafas olishi uchun zarur kisloroddan 3-4 barobar ko'p kislorod yoqadi.

YANGI O'ZBEKISTON

Ishlatilmagan maydon – YO'QOTILGAN IMKONIYAT

DALA CHETLARI SAMARASIZ EMAS

So'nggi yillarda agrar sohadagi islohotlar mazmunan yangi bosqichga ko'tarilib, yer resurslaridan unumli va maqsadli foydalanish masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Bu bejiz emas. Chunki yer cheklangan, biroq ulkan iqtisodiy va ijtimoiy qiymatga ega boylikdir. Undan oqilona foydalanish nafaqat alohida fermer yoki dehqon xo'jaligi, balki butun mamlakatning oziq-ovqat barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatni ta'kidlash joiz: bugungi globalashgan dunyoda biror davlatni oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan mutlaq mustaqil deb baholash qiyin. Xalqaro bozorlar o'zaro bog'langan, mahsulotlar aylanmasi esa doimiy harakatda. Bir davlatdagi ishlab chiqarish jarayoni yoki logistikadagi uzilish boshqa mintaqalarda narxlar tebranishini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, muayyan davlat qahva yoki don mahsulotlari eksporti bo'yicha yetakchi bo'lsa, u yerdagi siyosiy yoki iqtisodiy beqarorlik dunyo bozorida ushbu mahsulot tannarxi keskin oshishiga

imkoniyati mavjud. Biroq buning uchun faqat tavsiya va tushuntirishlar yetarli emas. Aniq mexanizmlar, nazorat va eng muhimi, mas'uliyatni kuchaytirish talab etiladi. Zero, yerdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, har bir maydonni hisobga olish va uning bo'sh qolishiga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning dolzarb talabidir. Boisi, samaradorlik, avvalo, intizom va yondashuvdan boshlanadi. Ana shu dolzarb vazifalardan kelib chiqib, qonunchilikka kiritilgan so'nggi o'zgartirish va qo'shimchalar yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim

qo'llash tartibi joriy etilmoqda. Bu yerdan foydalanishdagi befarqlikka nisbatan aniq chora sifatida namoyon bo'ladi. Yangi tizimda raqamlashtirish va shaffoflikka alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi har yili belgilangan muddatga qadar ekin ekish ta'minlanmagan yuqoridagi kabi yer uchastkalari va ularning egalari haqidagi ma'lumotlarni soliq organlariga elektron shaklda taqdim etadi. Bu ma'lumotlarni yashirish yoki sun'iy ravishda o'zgartirish imkoniyatini cheklab, nazoratning samaradorligini oshiradi.




sabab bo'ladi. Bu holat boshqa strategik mahsulotlar misolida ham kuzatiladi. Aynan shu sababli bugungi kunda har bir davlat o'z ichki resurslaridan samarali foydalanish, tashqi ta'sirlarga chidamli tizim yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston uchun ham bu yondashuv juda muhim. Chunki agrar salohiyatni to'liq ishga solish barqarorlik kafolatidir. Shu bilan birga, amaliyot barcha yer maydonlaridan bir xil foydalanilayotganini ko'rsatmayapti. Ayniqsa, dala hududlari chetlari — kanallar, ariqlar, shuningdek, kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi yerlar ko'p hollarda e'tibordan chetda qolmoqda. Vaholanki, aynan shu maydonlar ham qishloq xo'jaligi aylanmasiga to'liq jalb etilsa, qo'shimcha hosil va barqaror daromad manbai bo'lishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqda, ikkinchi darajali deb qaralayotgan bunday hududlardan samarali foydalanish orqali umumiy ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish

qadam bo'ldi. Yangi tartibga ko'ra, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarining faqat markaziy qismi emas, balki dala chetlaridagi kanal, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi hududlar ham alohida nazorat obyektiga aylanmoqda. Endi ikkilamchi ijara asosida yerdan foydalanayotgan ijarachilar uchun mas'uliyat yanada oshadi. Belgilangan muddat va talablarga muvofiq mazkur hududlarda maqbul ekin ekish ta'minlanmasa, bu holat huquqbuzarlik sifatida baholalanadi. Natijada bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha jarima

Eng muhim jihatlardan biri iqtisodiy ta'sir mexanizmlari kuchaytirilganidir. Agar yer maydonining muayyan qismida ekin ekish ta'minlanmasa, ushbu maydon uchun yer solig'i uch baravar miqdorda hisoblanadi. Aslida, bugunga qadar yetarlicha e'tibor qaratilmagan dala chetlari katta iqtisodiy salohiyatga ega. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, respublika bo'yicha o'n minglab gektar shunday maydon to'liq ishlatilmay kelingan. Agar ular qishloq xo'jaligi aylanmasiga kiritilsa, qo'shimcha minglab tonna mahsulot yetishtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Mazkur holat ichki bozorda narxlar barqarorligini



ILG'OR TEKNOLOGIYALAR VA SHINJON TAJRIBASI

qishloq xo'jaligida hosildorlikka zamin yaratadi

Bahor qishloq xo'jaligi uchun muhim pilla. Dehqonlar yerga urug' qadab, dalalarda agroteknik tadbirlar qizg'in jarayonga kiradi. Ayniqsa, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan fermerlar yerni tayyorlash, urug' tanlash va chigit ekishday muhim yumushlarni bajaradi. Gohida ob-havo inijligi bobodehqon rejasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo bunday holatlar uchun ham yetarlicha tajriba to'plagan fermerlar barcha qiyinchiliklarga oqilona yechim topmoqda. Qolaversa, qishloq xo'jaligidagi islohotlar sohaga zamonaviy texnologiyalar va yangi yondashuvlar tatbiq etilishiga zamin yaratdi. Natijada yerdan samarali foydalanish va hosildorlik darajasi oshdi.

Prezidentimiz 2025-yil dekabrda Qishloq xo'jaligi xodimlari kunida soha vakillari bilan uchrashuvda 2026-yilda "Shinjon tajribasi" asosida 300 ming gektarga chigit ekilishini bildirgandi. Shuningdek, tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish uchun 2 trillion 600 milliard so'm imtiyozli kredit, o'z mablag'idan paxta yetishtirgan fermerlarga hosilning 10 foizigacha qismini subsidiyalash uchun 250 milliard so'm berilishi belgilangandi. Bundan tashqari, paxta yetishtirish uchun kredit limitining yarmidan foydalangan fermerlarga hosilning 5 foizigacha subsidiya ajratiladi.



Navoiy viloyatida bu borada tizimli ishlar amalga oshirilib, xalqaro tajribalar qo'llanilmoqda. Joriy yilda chigit ekish mavsumida ham yangi texnologiyalardan foydalanildi. Xususan, Navbahor tumanida 5 ming 866 gektarga chigit ekish reja qilingan. Hozir jarayonga barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilgan. Ekin maydonlarining 3084 gektariga chigit 76/10 qo'shqator sxemada plyonka ostiga ekildi. Bu usul yerning namligini saqlaydi. Haroratni barqaror ushlab, unib chiqish jarayonini tezlashtiradi. Yana 2782 gektarga 76 yakkakaqator sxemada chigit ekildi.

Ayniqsa, "Shinjon tajribasi" asosida paxta yetishtirish agrar sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Bu tajriba suv resurslaridan samarali foydalanish, mehnat sarfini kamaytirish va yuqori hosildorlikka erishish imkonini bermogda. Shuningdek, paxta parvarishidagi sifat ko'rsatkichlarini oshiradi. Hozir tumanda chigit ekishni o'z vaqtida va sifatli yakunlash maqsadida barcha zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda. Texnika va agregatlar to'liq shay holatga keltirilgan, yetarli miqdorda yoqilg'i-moylash materiallari zaxirasi yaratilgan. Shu bilan birga, fermer xo'jaliklari va mutasaddi tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlik mustahkamlanib, agronomik nazorat kuchaytirilgan. Mutaxassislar yerni ekishga tayyorlash, o'g'itlash, sug'orish va chigitni to'g'ri joylashtirish kabi jarayonlarni doimiy ravishda monitoring qilib bordi. Bu kelgusida yuqori va sifatli hosil olish uchun mustahkam zamin yaratadi. Karmana tumanida qishloq xo'jaligida zamonaviy agroteknologiyalar keng joriy etilmogda. Yangi texnologiyadan samarali foydalanish maqsadida soha mutaxassislari uchun o'quv seminarlari tashkil etildi. Ularda mutaxassislar har bir gektardan barakali hosil

ta'minlash, importga qaramlikni kamaytirish va eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: dala chetlaridan haqiqatan ham samarali hosil olish mumkinmi? Amaliyot ko'rsatmoqdaki, bu yerlarda hosildorlik ba'zi hollarda asosiy maydonlarga nisbatan pastroq bo'lishi mumkin. Biroq bu yerlar umuman samarasiz degani emas. Aksincha, to'g'ri yondashuv va mos ekin turini tanlash orqali bu hududlardan yuqori iqtisodiy samara olish mumkin. Masalan, poliz ekinlari, sabzavotlar yoki mevali daraxtlar shunday sharoitlarga yaxshi moslashadi. Ayrim fermerlar tajribasi ko'rsatmoqdaki, hatto kichik maydonda ham to'g'ri agroteknika qo'llanilsa, sezilarli daromad olish mumkin. Demak, masala yerning joylashuvida emas, balki undan qanday foydalanishdadir. Albatta, bunday maydonlarni o'zlashtirish oson kechmaydi. Chekka hududlarda tuproq sifati pastroq bo'lishi, texnika kirishi qiyinligi yoki yo'l va kanallarga yaqinligi sababli ayrim xavf omillari mavjud. Biroq bu muammolarni zamonaviy agroteknologiyalar orqali bartaraf etish mumkin. Masalan, tomchilatib sug'orish, usulkni o'g'itlardan foydalanish va intensiv organik qo'llash orqali bunday yer unumdorligini sezilarli darajada oshirsa bo'ladi. Yangi tartib esa ana shu imkoniyatlarni ishga solish, har bir qarich yerni iqtisodiy aylanmaga kiritish va umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu jarayon yerdan foydalanayotganlarni yanada faol, mas'uliyatli va zamonaviy yondashuvga ega bo'lishga undaydi. Zero, dala chekkalariga munosabatni o'zgartirish bugungi kunning talabidir. Ularga endilikda ikkinchi darajali maydon emas, balki qo'shimcha o'sish nuqtasi sifatida qaralishi kerak. Shu o'rinda yana birmulohaza, dala chetlari imkoniyatini to'liq ishga solish masalasi faqat huquqiy yoki ma'muriy choralar bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, agroteknik yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, bunday hududlarni o'zlashtirish uchun zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash, tomchilatib sug'orish tizimlari, organik va mineral o'g'itlardan samarali foydalanish talab etiladi. Bu, o'z navbatida, qo'shimcha moliyaviy xarajatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, har qanday yangi talab yoki agroteknik chora, avvalo, iqtisodiy hisob-kitob bilan bog'liq. Ya'ni dala chekkalarini o'zlashtirish uchun qilingan sarmoya tezda o'zini oqlashi yoki oqlamasligi muhim masala. Chunki o'g'itlar, suv tejovchi texnologiyalar va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari ayrim xo'jaliklar uchun qo'shimcha moliyaviy yuk bo'lib ko'rinishi mumkin. Ayniki, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish, imtiyozlar va rag'batlantirish tizimini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki yerdan samarali foydalanishni talab qilish bilan birga uni amalga oshirish uchun qulay iqtisodiy shart-sharoit yaratish ham muhim. Asosiysi, har bir qarich yerni iqtisodiy aylanmaga kiritishda davlat va fermer o'rtasidagi manfaatlar muvozanati ta'minlanishi lozim. Zero, barqaror natija aynan shu hamkorlik va uyg'unlik orqali qo'lga kiritiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

“

Qo'shni davlat chegarasiga yetib borganimizda yuragimda bir oz xavotir aralash hayajon uyg'ondi. Biroq ikki davlat chegarachilarining ochiq chehrasi, yaxshi muomalasi barcha rasmiyatchiliklarni yengillashtirdi. Ortiqcha hech qanday savol, hech qanday sarsongarchilik yo'q. Go'yoki bu yo'l azaldan ochiq bo'lganday. Barcha jarayon tabiiy va oson kechdi.

”

oila bo'lib yashaydi. Bir dasturxon atrofida yig'iladi. Bir-birining quvonchiga sherik, tashvishiga hamdard bo'ladi. Shunday yurtda yashab, uni sevmay bo'ladimi?! Vafini kuylamay, she'rlarga solmay bo'ladimi?! Axir bu yurt — do'stlikni qadrlaydigan, qalblarni yaqinlashtiradigan, insonni inson sifatida ulug'laydigan tabarruk zamin...

Shoirning so'zlari qulog'inda uzoq vaqt jaranglab turdi.

Qo'shni davlat chegarasiga yetib borganimizda yuragimda bir oz xavotir aralash hayajon uyg'ondi. Biroq ikki davlat chegarachilarining ochiq chehrasi, yaxshi muomalasi barcha rasmiyatchiliklarni yengillashtirdi. Ortiqcha hech qanday savol, hech qanday sarsongarchilik yo'q. Go'yoki bu yo'l azaldan ochiq bo'lganday. Barcha jarayon tabiiy va oson kechdi.

Ertalab soat to'qqiz yarimda manzilga kirib bordik.

Dushanbe meni quchoq ochib kutib olgandek tuyuldi. Bu shaharga qadam qo'ygan zahotim undagi ilqlik, samimiyatni his

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MOUSSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.
30821 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05